

**“SOG‘LOM AVLOD SARI: BOLALARDA RIVOJLANISH NUQSONLARINI
ERTA TASHXISLASH VA SAMARALI ABILITATSIYA YO‘LLARI”**

Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Logopediya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ibragimova Durdona Dilmurod qizi

Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Azimova Dilnoza Sherzodvna

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarda rivojlanish nuqsonlarini erta tashxislash va samarali abilitatsiya yo‘llarining ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Erta tashxisning ahamiyati, abilitatsiya va reabilitatsiya jarayonlarining farqli jihatlari, logoped va defektologlarning o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, otalarning hamkorligi, psixologik qo‘llab-quvvatlash va maxsus pedagogik metodlarning samaradorligi haqida fikr yuritilgan. O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimining joriy etilishi, maxsus markaz va logopedik punktlar faoliyati orqali bolalarda rivojlanish nuqsonlarini bartaraf etishning dolzarb jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar:erta tashxis, abilitatsiya, reabilitatsiya, logopediya, defektologiya, rivojlanish nuqsonlari, inklyuziv ta’lim, maxsus pedagogika, ota-ona hamkorligi, sog‘lom avlod.

Аннотация: В настоящей статье освещены научно-теоретические и практические основы ранней диагностики и эффективных путей абилитации нарушений развития у детей. Проанализированы значимость ранней диагностики, различия между процессами абилитации и реабилитации, а также роль логопедов и дефектологов. Рассмотрены вопросы сотрудничества родителей, психологической поддержки и эффективности специальных педагогических методов. Раскрыты актуальные аспекты преодоления нарушений развития у детей через внедрение системы инклюзивного образования в Узбекистане и деятельность специализированных центров и логопедических пунктов.

Ключевые слова:ранняя диагностика, абилитация, реабилитация, логопедия, дефектология, нарушения развития, инклюзивное образование, специальная педагогика, сотрудничество родителей, здоровое поколение.

Abstract: This article illuminates the scientific, theoretical, and practical foundations of early diagnosis and effective ways of habilitation for developmental disorders in children. It analyzes the significance of early diagnosis, the distinctions between the processes of habilitation and rehabilitation, and the role of speech therapists (logopedists) and defectologists (special educators). Furthermore, the

discussion covers parental cooperation, psychological support, and the effectiveness of special pedagogical methods. The pressing aspects of overcoming developmental disorders in children are revealed through the implementation of the inclusive education system in Uzbekistan and the activities of specialized centers and speech therapy points.

Keywords: early diagnosis, habilitation, rehabilitation, speech therapy (logopedia), defectology, developmental disorders, inclusive education, special pedagogy, parental cooperation, healthy generation.

Kirish: Erta tashxis va abilitatsiya bu:erta tashxis kasallik yoki patologik holatlarini simptomlar jarayoni hisoblanadi.

Abilitatsiya-bemorning funksional imkoniyatlarini tiklash va yaxshilashga qaratilgan jarayondir.

Bola yoki katta kishida, rivojlanishning keskin ravishda orqada qolish yoki mavjud bo‘lmagan ruhiy va jismoniy funksiyalarni,ko‘nikmalarini rivojlantirish va shakllantirishdan iborat.

Reabilitatsiya-bemorlar,baxtsiz hodisa yoki boshqa sabablar oqibatida yo‘qotilgan ruhiy yoki boshqa sabablar oqibatida yo‘qotilgan ruhiy yoki jismoniy funksiyalar,ko‘nikmalarini tiklash.

Lev Semyonovich Vygotskiy (1896-1934) bolalarda rivojlanish,ijtimoiy-madaniy nazariyasini yaratgan.

„Nuqsonli bola rivojlanish g‘oyasini ilgari surgan.Erta tashxis va abilitatsiyaning nazariy asoslarini bergan.

Aleksandr Romanovich Luriya (1902-1977) - neyropsixologiya asoschisi.Miyaning funksional tizimlari va nuqsonli bolalarda nutq hamda kognitiv jarayonlarni tiklash usullarini ishlab chiqqan.

Pavel Blonskiy (1884-1941) pedagog-psixolog,maxsus ta’lim metodikasini rivojlantirish.

Rau M.S.- logopediyada erta tashxis va korreksion metodlarini ishlab chiqqan.

H.Yo‘ldosheva,M.Ochilov,Sh.Usonov-

logopediya va maxsus pedagogika sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan.

O‘zbekiston logopedlari va defektologlari **O.Musurmonova,N.G‘aniyeva**-erta tashxis,logopedik metodikalar va abilitatsiya masalalarida tadqiqot qilgan.

Bolalarda rivojlanish nuqsonlarini erta tashxislash va samarali abilitatsiya yo‘llari jamiyatimiz uchun nihoyatda dolzarb masaladir.

Chunki bola hayotining dastlabki yillari – psixik va jismoniy rivojlanishning eng faol davri hisoblanadi.

Shu bois, bola rivojlanishidagi kichik og‘ishlar ham vaqtida aniqlanmasa, keyinchalik ularning ijtimoiylashuvi, ta’lim jarayoniga qo‘shilishi va mustaqil hayotga tayyorlanishida jiddiy to‘siqlarga olib kelishi mumkin.

Erta tashxislashning ahamiyati shundaki, u nafaqat bolaning mavjud nuqsonini aniqlash, balki uning keyingi rivojlanish prognozini belgilash imkonini beradi.

Zamonaviy defektologiya va logopediya ilmda erta aniqlangan rivojlanish nuqsonlari maxsus pedagogik ta’sir, logopedik mashg‘ulotlar, psixologik qo‘llab-quvvatlash va abilitatsiya jarayonlari orqali sezilarli darajada yumshatilishi yoki to‘liq bartaraf qilinishi mumkin.

Abilitatsiya jarayoni, reabilitatsiya-

dan farqli ravishda, mavjud bo‘lmagan funksiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa tug‘ma nuqsonlarga ega bolalar uchun muhim ahamiyatga ega.

Masalan, nutq apparatida nuqsoni bo‘lgan bolaga logopedik mashg‘ulotlar yordamida yangi nutqiy ko‘nikmalar beriladi, eshitishida muammo bo‘lgan bolalarda esa eshitish apparatlari va maxsus metodlar orqali kommunikativ faoliyatni shakllantirish mumkin.

Shuningdek, ota-onalarning hamkorligi ham erta tashxis va abilitatsiyada muhim o‘rin tutadi.

Oiladagi psixologik muhit, ota-onaning bolaning rivojlanishiga e’tiborli bo‘lishi, pedagog va logoped ko‘rsatmalariga amal qilishi abilitatsiya samaradorligini yanada oshiradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda bolalarda rivojlanish nuqsonlarini erta aniqlash bo‘yicha maxsus markazlar, logopedik punktlar va defektologik xizmatlar faoliyat yuritmoqda.

Prezident qarorlari asosida inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda.

Bu esa rivojlanishida og‘ir nuqsonlari bo‘lmagan, biroq maxsus yondashuvga muhtoj bolalarning umumta’lim muassasalarida ta’lim olishiga imkon bermoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, erta tashxis va abilitatsiya jarayonlari o‘z vaqtida amalga oshirilgan bolalarda nutqiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanish ancha yuqori bo‘ladi.

Shu sababli logopediya va defektologiya sohasi mutaxassislaridan tashqari, shifokorlar, psixologlar, pedagoglar hamkorlikda ishlashi zarur.

Xulosa:

Kuzatuvlar asosida shuni bildikki, bolalarda rivojlanish nuqsonlarini erta tashxislash va samarali abilitatsiya yo‘llarini qo‘llash ularning keyingi psixik, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Erta tashxis bolaning mavjud

muammosini aniqlash bilan birga, uning kelajakdagi rivojlanish prognozini belgilashga imkon beradi. Abilitatsiya jarayonlari esa, ayniqsa tug‘ma nuqsonlarga ega bolalarda, mavjud bo‘lmagan funksiyalarni shakllantirish va yangi ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali samarali natija beradi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatmoqdaki, logoped, defektolog, psixolog va shifokorlarning hamkorlikdagi faoliyati, ota-onalarning faol ishtiroki hamda maxsus pedagogik yondashuv erta tashxis va abilitatsiyaning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O‘zbekistonda yaratilayotgan shart-sharoitlar, inklyuziv ta’lim tizimining joriy etilishi va logopedik xizmatlarning kengayishi sog‘lom avlodni tarbiyalash, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy L.S. Umumiy psixologiya asoslari. Moskva: Pedagogika, 1991.
2. Luriya A.R. Miya va psixik jarayonlar. Moskva: Nauka, 1973.
3. Blonskiy P.P. Pedagogik psixologiya. Moskva: Prosveshchenie, 1964.
4. Rau M.S. Logopediya asoslari. Moskva: Prosveshchenie, 1988.
5. Musurmonova O. Logopediya nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
6. G‘aniyeva N. Maxsus pedagogika va logopediya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
7. Yo‘ldosheva H., Ochilov M., Usmonov Sh. Defektologiya asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
8. AmericanSpeech-Language-Hearing Association (ASHA). Early Intervention and Child Development. Washington, 2010.
9. World Health Organization (WHO). International Classification of Functioning, Disability and Health (ICF). Geneva: WHO Press, 2001.
10. UNICEF. Early Childhood Development and Disability. New York, 2013.